



**KURKA GO'SHTINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI O'RGANISH ASOSIDA
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TOVARLAR NOMENKLATURASI KODLARINI
YANGILASH**

**Turdialiyeva Mahzuna Muxtoraliyevna¹,
Hamroqulov Mahmud G'ofurjonovich²,
Hamroqulov G'ofurjon³**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

So'nggi yillarda mamlakatimizda bojxona maqsadlari uchun tovarlarni tasniflash va identifikatsiyalashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Yangi xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlar oqimini ko'paytirish, tashqi savdo ishtirokchilari va bojxona organlari xodimlarining qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) asosida tovarlarni tasniflashga qaratilgan.

Ushbu olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi kurka go'shtining kimyoviy tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari, sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlashga, shuningdek, TIF TNga yangi kod raqamlarini kiritish bo'yicha Bojxona qo'mitasiga tavsiyalar berish orqali O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan. Bu tavsiyalar kurka go'shtining to'g'ri tasnifini ta'minlash, to'g'ri bojxona tartib-taomillarini osonlashtirish va bojxona to'lovlarini undirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtida kurka go'shti O'zbekiston Respublikasi TIF TN I bo'limining 2-guruhi bo'yicha 0207 24 (yangi so'yilgan yokisovutilgan, bo'laklarga bo'linmagan) va 0207 25 (muzlatilgan, bo'laklarga bo'linmagan) mahsulot pozitsiyalari bo'yicha tasniflanadi. Yetishtirish va qayta ishslash omillaridan qat'iy nazar, bu tasniflar bo'laklarnigina farqlab, kurka go'shtining iste'mol qiyimatini va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini qayta baholashga ta'sir qilishi mumkin.

TIF TN bo'yicha kurka go'shtini tasniflash quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Mahsulot tavsifi va xususiyatlari:

– Tasniflash kurka go'shtining yangi, sovutilgan yoki muzlatilganligi, butunligi yoki bo'laklarga bo'linganligi kabi fizik-kimyoviy xususiyatlariga asoslanadi.



– Patlarni, boshni, panjalarini va gibletlarni olib tashlash, shuningdek, bo‘yin, yurak, jigar va mushak oshqozoni kabi qismlarni kiritish kabi maxsus ishlov berish tafsilotlari hisobga olinadi. Bu xususiyatlar kurka go‘shti tasniflanadigan o‘ziga xos kichik sarlavhalarni belgilaydi.

2. Qayta ishlash va taqdim etish:

– Qayta ishlash darajasi (masalan, “80% kurka” va “73% kurka”) tasniflashda muhim omil hisoblanadi. Kurka go‘shtini qayta ishlash darajasi, shu jumladan ma’lum qismlarni olib tashlash va har qanday kimyoviy ishlov berish darajasi uning TIF TN bo‘yicha tasnifiga ta’sir qiladi.

– Kurka go‘shtining patlari tozalanganligi, yulunganligi yoki go‘shtning xavfsizligi, saqlash muddati, shuningdek tashqi ko‘rinishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan zaharli kimyoviy birikmalarning olib tashlanganligi ham tasniflashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

3. Xavfsizlik va sifat standartlari:

– Tasniflashda zaharli kimyoviy moddalar va texnogen ta’sirlar e’tiborga olinmagan. Bu o‘z navbatida, xalqaro savdoda TIF TN dan tashqari mahsulotlarning savdo va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish uchun muhim bo‘lgan sog‘liq va xavfsizlik bilan bog‘liq standartlarga javob berishini nazorat qilishni ham nazarda turadi.

Tadqiqot ishi kurka go‘shtini fizik-kimyoviy xossalari asosida batafsil va aniq tasniflash zaruriyatini taklif qiladi. TIF TN kodlarini takomillashtirish va yangi kod raqamlarini ishlab chiqish orqali kurka go‘shtini yanada aniq tasniflash, mahsulotning iste’mol qiymati va xavfsizligini to‘g‘ri baholashni ta‘minlash muhum ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari kurka go‘shti uchun yangi TIF TN kod raqamlarini taklif qilishga olib keldi. Ushbu kodlar go‘shtni qayta ishlash xususiyatlari va xavfsizlik ko‘rsatkichlariga asoslangan yanada aniqroq tasnifni ko‘rsatadi:

| Amaldagi TIF TN kod raqamlari | Taklif etilgan TIF TN kod raqamlari | Tovar nomlari |
|--|--|---|
| 0207 24 100 | 0207 24 100 1 | - - - - “80% lik kurka” sifatida keltirilgan pati yulangan, zaxarli kimyoviy birikmalarsiz va texnogen ta’sirlarsiz , ichak-chavoqsiz, boshsiz va panjalarsiz, lekin bo‘yin, yurak, jigar va mushakli oshqozon bilan |



| | | |
|----------------|------------------|--|
| | 0207 24 100 9 | - - - - boshqalar |
| 0207 24 900 | 0207 24 900 1 | - - - - "73% lik kurka" sifatida keltirilgan pati yulangan zaxarli kimyoviy birikmalarsiz va texnogen ta'sirlarsiz , ichak-chavoqsiz, boshsiz va panjalarsiz, lekin bo'yin, yurak, jigar va mushakli oshqozon bilan |
| | 0207 24 900 9 | - - - - boshqalar |
| 0207 25 100 | 0207 25 100 1 | - - - - "80% lik kurka" sifatida keltirilgan pati yulangan, zaxarli kimyoviy birikmalarsiz va texnogen ta'sirlarsiz , ichak-chavoqsiz, boshsiz va panjalarsiz, lekin bo'yin, yurak, jigar va mushakli oshqozon bilan |
| | 0207 25 100 9 | - - - - boshqalar |
| 0207 25 900 | 0207 24 900 1 | - - - - "73% lik kurka" sifatida keltirilgan pati yulangan zaxarli kimyoviy birikmalarsiz va texnogen ta'sirlarsiz , ichak-chavoqsiz, boshsiz va panjalarsiz, lekin bo'yin, yurak, jigar va mushakli oshqozon bilan |
| | 0207 25 900 9 | - - - - boshqalar |

Tadqiqot davomida turli mamlakatlardan olingan kurka go'shti namunalari organoleptik, fizik-kimyoviy va xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil qilindi. Tahlil og'ir metallar tuzlari, pestitsidlar va antibiotik qoldiqlarini tekshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu xavfsizlik baholashlari kurka go'shti amaldagi me'yoriy hujjat talablariga javob berishini va iste'mol qilish uchun xavfsiz bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Taklif etilayotgan yangi kod raqamlari kurka go'shti iste'mol qiymati va xavfsizlik ko'rsatkichlari bo'yicha to'g'ri baholanishini ta'minlashga yordam beradigan bat afsil tasniflash tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu yangi kod



raqamlari O'zbekiston Bojxona qo'mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasi tomonidan amaliyotga joriy etish maqsadida qabul qilindi.

Adabiyotlar:

1. Турдиалиева, М. М. (2024). Анализ путей улучшения адаптации к международным стандартам и лучшим практикам. *Universum: технические науки*, 1(9 (126)), 11-14.
2. Турдиалиева, М. М., Хамракулов, М. Г., & Хамракулов, Г. Х. (2024). Исследование образцов мяса индейки при помощи метода оптико-эмиссионной спектрометрии произведенной в некоторых странах. *Universum: технические науки*, 6(4 (121)), 42-46.
3. Mukhtaralievna, T. M., & Mukhtoralievna, R. M. (2023). Interrelation of science and education in engineering higher educational institutions: challenges and opportunities. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(09), 23-27.
4. Topvoldiyeva, G. A., & Turdialiyeva, M. M. (2023). Implementation of the principles of quality management in the educational process. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(01), 170-174.
5. Турдиалиева, М. М. (2023). Современные звукоизмерительные приборы. *Universum: технические науки*, (10-2 (115)), 5-7.
6. Turdialieva, M. (2023). Surface quality in abrasive treatment of car windows, physical and chemical properties of the treated material. *Universum: технические науки*, (10-6 (115)), 49-51.
7. Qodirova, S., & Turdialiyeva, M. (2022). Metrologiya va standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatining tahlili. *Академические исследования в современной науке*, 1(19), 72-76.
8. Турдиалиева, М., Аманова, Ф., & Холикова, Г. (2022). О Вертикальной и горизонтальной границе ландшафтов. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 533-536.
9. Холикова, Г., Турдиалиева, М., & Аманова, Ф. (2022). Некоторые принципы организации ландшафтно-экологических в ферганской долине. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 537-540.
10. Akhmedov, S. S., & Turdialiyeva, M. M. (2022). Circuits and operating principle of DC converters. *Science and Education*, 3(9), 128-134.



11. Yusupjan, M., Yusubjonovna, M. N., & Jamoldinovich, A. E. (2023). Development of a system for modeling the process of petroleum products processing based on fuzzy logic. *Open Access Repository*, 10(11), 11-16.
12. Мамасодиков, Ю., Мамасодикова, Н. Ю., & Алихонов, Э. Ж. (2023). Построение моделей систем управления мультисервисными сетями на основе системного подхода. *Research and implementation*.
13. Erkaboev, A., Obidov, J., Madmarova, U., & Alikhonov, E. (2023). Analysis of the ISO 9001 standard model of risk management in analytical testing laboratories. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 06009). EDP Sciences.
14. Yusupjan, M., Yusubjonovna, M. N., & Jamoldinovich, A. E. (2023). Synthesis of a Robust Control System with A Reference Model of a Nonlinear Dynamic Object with State Delay. *Genius Repository*, 24, 32-37.
15. Mamasadikov, Y., & Jamoldinovich, A. E. (2022). A Device for monitoring the weight of cotton ribbons. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 64-72.
16. Mamasadikov, Y., & Alixonov, E. J. (2022). Optoelectronic device for regulation of linear density of cotton tape in the process of deep processing of raw materials in cotton-textile clusters.«. Paxta to ‘qimachilik klasterlarida xom-ashyoni chuqr qayta ishlash asosida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy, innovastion-texnologik muammolari va xalqaro tajriba» mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Namangan muhandislik texnologiya instituti-2022 yil, 27-28.
17. Мамасадиков, Ю., & Алихонов, Э. Ж. (2022). Роль оптоэлектронного автоматического контроля линейной плотности хлопковой ленты в решении задач в легкой промышленности.“. Yengil sanoat tarmoqlari, muammolari, tahlil va yechimlari” mavzusida Vazirlik miqyosida ilmiy va ilmiy-texnik anjuman ma’ruzalar to ‘plami, FarPI, 303-306.
18. Mamasadikov, Y., & Alikhonov, E. J. (2022). An optoelectronic device that controls the linear density of cotton tape during quality processing of cotton raw materials. *Science and Education*, 3(9), 168-177.
19. Алихонов, Э. Ж. (2022). Определение линейной плотности хлопковых лент. *Журнали*, 233.
20. Jamoldinovich, A. E. (2022). About the Integration of Information Security and Quality Management. *Eurasian Research Bulletin*, 12, 18-24.
21. Алихонов, Э. Ж. (2021). Оптоэлектронное устройство для автоматического контроля линейной плотности хлопковые



ленты. Научно-Технический журнал Ферганского политехнического института, 24(2), 151-154.

22. Mamasadikova, U. Y., & Ergashev, S. F. (2022). Quyosh kollektorlarini xaroratini masofadan nazorat qilish uchun optoelektronik qurilma. *Ilmiy texnika jurnal*, 26(1), 111-116.
23. Ergashev, S. F., Axmadaliyevich, K. A., & Yusupjonovna, M. U. (2021). Optoelectronic device for remote temperature control of sanitary units. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research*, 7(6), 211-215.
24. Турдиалиева, М. М. (2022). Анализ конструкций токарных станков. *Universum: технические науки*, (10-1 (103)), 52-54.
25. Турдиалиева, М. М., Хамракулов, М. Г., & Хамракулов, Г. Х. (2022). Разработка стандарта организации на производство деликатесов из мяса индейки. *Universum: технические науки*, (9-3 (102)), 19-22.
26. Турдиалиева, М. М. (2022). Анализ нестандартных конструкций инструмента штампа. *Universum: технические науки*, (10-1 (103)), 49-51.
27. Mukhtaralievna, T. M., & Mukhtoralievna, R. M. (2022). Poultry meat and its processed products. *American Journal of Applied Science and Technology*, 2(10), 35-40.
28. Yusupjan, M., & Muhammadsharifovna, K. G. (2023). Device for control of raw silk thickness based on optoelectronic generator. *Open Access Repository*, 10(11), 17-20.
29. Siddikov, I., Mamasodikov, Y., Mamasodikova, N., & Khujanazarov, U. (2023). Methods for optimizing data processing based on fuzzy adjustment of time series elements and identification model variables. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 03010). EDP Sciences.
30. Siddikov, I., Mamasodikov, Y., Mamasodikova, N., & Jurayeva, G. (2024). Simulation modeling of a synergetic chemical reactor control system. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 84, p. 05026). EDP Sciences.